

O'QITUVCHILAR JAMOASI O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHDA MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING O'RNI

Taxirova Sabohat Rustamovna

*Xorazm viloyati Shovot tumani
49-maktab amaliyotchi psixologi*

Ro'zimova Surayyo Rahimovna

*Xorazm viloyati Shovot tumani
45-maktab amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchilar jamoasi o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda maktab amaliyotchi psixologining o'rni, uning vazifalari hamda samarali ishlash usullari yoritilgan. Shuningdek, sog'lom psixologik muhitni shakllantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: psixolog, o'qituvchi, jamoa, munosabat, muloqot, psixologik muhit, hamkorlik, konflikt, rivojlanish.

KIRISH

O'qituvchilar jamoasi har bir ta'lim muassasasining asosiy tayanch kuchidir. Jamoa ichidagi sog'lom munosabatlar nafaqat o'qituvchilarning ish samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilar tarbiyasi va ta'lim sifatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pedagogik jamoada o'zaro hurmat, hamkorlik va ijobiy muhitni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Jamoa munosabatlarining ahamiyati

- O'qituvchilar o'rtasidagi iliq munosabatlar:
- ishdagi stress va nizolarni kamaytiradi;
- tajriba almashishni osonlashtiradi;
- dars sifatini oshiradi;
- o'quvchilarga ijobiy namuna bo'lib xizmat qiladi.

Aksincha, kelishmovchiliklar va nizolar pedagogik jarayon samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi.

O'zaro hurmat va hamkorlik

- Har bir o'qituvchi o'z kasbiy tajribasi va fikriga ega. Jamoada:
- bir-birining fikrini tinglash;
- tanqidni to'g'ri qabul qilish;
- yordamga tayyor bo'lish;
- umumiy maqsadga yo'naltirilgan ishlash muhimdir.

Hamkorlik orqali dars ishlanmalari, tarbiyaviy ishlar va loyihalar yanada sifatli amalga oshadi.

- Rahbariyatning roli
- Maktab rahbariyati jamoa muhitini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. U:
 - adolatli yondashuvni ta'minlashi;
 - ochiq muloqotni yo'lga qo'yishi;
 - rag'batlantirish tizimini to'g'ri tashkil etishi;
 - nizolarni o'z vaqtida hal qilishi lozim.

Pedagogik jamoada ba'zan turli fikrlar to'qnashuvi yuzaga keladi. Bunday vaziyatlarda:

- muammoni shaxsiylashtirmaslik;
- muloqot orqali yechim topish;
- vositachi (psixolog yoki rahbar) yordamidan foydalanish tavsiya etiladi.

O'qituvchilar jamoasidagi sog'lom munosabatlar ta'lim muassasasining rivojlanishida muhim omildir. Hamjihatlik, o'zaro hurmat va professional hamkorlik orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Maktab jamoasining samarali faoliyati ko'p jihatdan o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarga bog'liq. Agar jamoada sog'lom psixologik muhit mavjud bo'lsa, ta'lim

sifati ham yuqori bo‘ladi. Shu sababli o‘qituvchilar o‘rtasidagi ijobiy munosabatlarni rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.

Bu jarayonda maktab amaliyotchi psixologining roli alohida ahamiyatga ega. Psixolog jamoa ichidagi munosabatlarni o‘rganadi, muammoli vaziyatlarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

O‘qituvchilar jamoasida ba‘zan tushunmovchiliklar, kelishmovchiliklar yoki nizolar yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda psixolog vositachi sifatida ishtirok etib, tomonlarni murosaga keltirishga yordam beradi.

Psixologning asosiy vazifalaridan biri — jamoada sog‘lom psixologik muhit yaratishdir. Bu maqsadda u turli treninglar, seminarlar va psixologik mashg‘ulotlar tashkil etadi. Bu mashg‘ulotlar orqali o‘qituvchilarda muloqot madaniyati, o‘zaro hurmat va hamkorlik ko‘nikmalari rivojlanadi.

Shuningdek, psixolog o‘qituvchilarning ruhiy holatini ham kuzatib boradi. Ularning stress darajasini aniqlaydi va zarur hollarda psixologik yordam ko‘rsatadi. Bu esa o‘qituvchilarning ish faoliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘qituvchilar o‘rtasida ochiq va samimiy muloqotni yo‘lga qo‘yish ham psixologning muhim vazifalaridan biridir. Bu orqali jamoada ishonch va o‘zaro tushunish mustahkamlanadi.

Psixolog shuningdek, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham e‘tibor qaratadi. Bu o‘qituvchilarning birgalikda samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi.

Ota-onalar va ma‘muriyat bilan hamkorlik qilish orqali psixolog umumiy muhitni yanada yaxshilashga hissa qo‘shadi.

Stressni kamaytirish: Ishdagi konfliktlar va qarama-qarshi vaziyatlarni oldini olish, pedagoglarning ruhiy barqarorligini ta‘minlash.

Motivatsiya va rag‘batlantirish: Pedagoglarni ijobiy ishlashga rag‘batlantirish, ularning professional o‘rishini qo‘llab-quvvatlash.

Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish: Ochiq va samarali muloqot orqali qarorlar qabul qilish, fikr almashish va nizolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Jamoa ichida ijtimoiy qoidalarni o‘rganish: Har bir pedagog o‘z rolini tushunadi, ish tartibi va etik qoidalarni hurmat qiladi, bu ijobiy munosabatlar uchun asos bo‘ladi.

Shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash: Har bir pedagogning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish orqali ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi ta‘minlanadi.

Pedagogik jamoada munosabatlarni shakllantirishning samarali usullari:

- guruh ishlari va seminarlar;
- trening va psixologik mashg‘ulotlar;
- ochiq muloqot va feedback sessiyalari;
- ijobiy rag‘batlantirish va mukofotlash.

Munosabatlar tizimi pedagog xodimning nafaqat ish bilan bog‘liq kechinmalarini balki, kasbiy faoliyat bilan bog‘liq, boshqa bir idrok etish xususiyatlarini ham tavsiflaydi. Jamoa a‘zolari bilan bo‘lgan munosabatlarning ijobiy yoki salbiy ta‘siri, har bir xodimning shaxsiy munosabatlariga mos, ichki munosabatlar tizimini shakllantiradi.

Shaxslararo munosabatlarga bo‘lgan qobiliyat pedagog xodimlar uchun juda muhim psixologik unsur sanalib, uni yaxshi shakllantirmasdan turib, kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etish, oqilona qarorlar qabul qilish mumkin emas. Shu boisdan, pedagog xodimlarida shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq etish hozirgi kun talablaridan biridir. Boshqa kasbiy faoliyat turlaridan farqli o‘laroq, pedagog xodimlarning professional kasbiy faoliyatlari o‘ziga xos psixologik sifatlarni talab etib, u ko‘plab ekstremal sharoitlarda murakkab vazifalarni bajarish bilan xarakterlanadi. V.G.Kriskoning ta‘kidlashicha, shaxslar har doim kasbiy va maishiy faoliyatlarida boshqalar bilan munosabatda bo‘lishadi. Bu munosabatlar davomiy va rivojlanish dinamikasiga ko‘ra, ahamiyatli sanaladi.

L.N.Djrnazyanning so‘zlariga ko‘ra, barcha kasb egalarida shaxslararo munosabatlarning shakllanishiga quyidagi omillar ta‘sir etadi:

- jismoniy jozibadorlik;
- fazoviy yaqinlik;
- aloqada mavjudligi;

- o‘zaro ta‘sirning davom etishini kutish;
- o‘zaro munosabat;
- o‘xshashlik;
- bir -birini to‘ldiruvchanlik; hamdardlik;
- maqsadlarga erishishga hissa qo‘shish; □ shaxsiy uyg‘unlik.

Demak, tashqi ko‘rinishdan tortib, insonning boshqa kishilarga bo‘lgan ta‘sir darajasi, yuqori empatik qobiliyat, maqsadlarga hissa qo‘sha olish imkoniyati kabilar ham shaxslararo munosabatlarni rivojlantiruvchi omillar hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytganda, pedagog jamoasining har bir a‘zolari o‘z xususiyatlari bilan, jamoadoshlarining barcha sifatlariga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Bu borada I.N.Kuznesovning izlanishlari alohida ahamiyatga ega sanaladi. Muallifning aytishicha, samarali shaxslararo muloqot dinamikasi quyidagilar bilan tavsiflanadi – psixologik aloqa o‘rnatish qobiliyati; – kommunikativ ta‘sirning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish; – aloqa o‘rnatish vaziyatlarning izchilligi va adekvatligi bilan; – og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqotning samaradorligi bilan; – suhbadoshlarning tashqi ko‘rinishi, jozibadorligi, imij, qiyofa va boshqalar. Shaxs individualligini yaxlit tizimi, narsalarni ajratishi, uning ob‘ektiv voqelikdagi turli hodisalarga ongli aloqasi shu jumladan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uch komponent: insonni boshqa odamlarga, o‘zo‘ziga va tashqi olamdagi predmetlarga aloqasi tushuniladi.

Rus psixologi G.M. Andreevaning ta‘rificha, shaxs butun hayoti davomida biror jamoa yoki guruh a‘zosi sifatida, turli ko‘rinishga ega bo‘lgan va turli xil darajadagi munosabatlarga kirishadi. Shu bois, shaxslararo munosabatlar jarayoni o‘z murakkablik darajasi bilan xarakterlanadi Bundan tashqari, A.A.Bodalevning yozishicha, ijtimoiy psixologiya fanida shaxslararo munosabatlarning quyidagi turlari ajratiladi

- namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra - iqtisodiy (ishlab chiqarish), huquqiy (huquqiy), mafkuraviy, siyosiy, diniy, axloqiy, estetik va boshqalar;
- turli guruhlariga mansubligi bo‘yicha - milliy (millatlararo, etnik), sinfiy, konfessional va boshqalar
- ishlash usuli bo‘yicha - vertikal va gorizontal munosabatlar;

- shaxslar va guruhlar o‘rtasida (rasmiy va norasmiy, kichik va katta, uyushgan va uyushmagan), guruhlar va jamiyat o‘rtasida, shaxs va jamiyat o‘rtasida va boshqalar;
- tartibga solish xarakteriga ko‘ra - rasmiy va norasmiy va boshqalar

Demak, shaxslararo munosabatlarni shakllanishi uning namoyon bo‘lish xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Pedagog xodimlarning kasbiy faoliyatlarida shaxslararo munosabatlarga bo‘lgan qobiliyatlar shakllanishini, ijtimoiy munosabatlarning deyarli barcha shakllarida ko‘rish mumkin. Mazkur masalada V.N.Myasishevning g‘oyalari e‘tiborga molik hisoblanadi. Muallifning aytishicha munosabatlarning ikki turi farqlanadi, ya’ni – ijtimoiy munosabatlar; – psixologik munosabatlar Yuqoridagilardan farqli o‘laroq, pedagog xodimlarida psixologik munosabatlarni shakllantirish muammosiga doir ishlarni V.P.Poznyakovning izlanishlarida ko‘rish mumkin. Muallifning yozishicha, psixologik munosabatlar-insonlar ongida turli aloqalar va munosabatlarning bevosita aks ettirilish natijasidir paydo bo‘ladi. Bunda insonlarga xos yoqtirish yoki yoqtirmaslik, voqe‘likni boshidan kechirish, his qilish va munosabat bildirish kabi psixologik xususiyatlar aks etadi. Ana shunday o‘ziga xos psixologik xususiyatlarning shakllanishi, ular mansub bo‘lgan guruhlar va ular yashayotgan jamiyatning o‘zaro ta’siriga bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun, pedagog xodimlarida psixologik munosabatlarni shakllanishi nafaqat, ularning ichki-psixik olami bilan bog‘liq balki, kasbi, jamoasi, ular yashayotgan muhit, oilasi kabilarga aloqador sanaladi. Yu.A.Fomin o‘zining “Ishdagi muloqot psixologiyasi” nomli monografiyasida keltirishicha, shaxslararo munosabatlar fenomenini tavsiflashda quyidagilar hisobga olishi kerak

- odamlar faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy psixologik fon va ijtimoiy-psixologik sharoitlar
- insonning ijtimoiy guruhlar va jamoalarga mansubligi, bu jarayonlar o‘zaro munosabatlar, shaxslararo munosabatlar va muloqotni optimallashtirish va samaradorligiga hissa qo‘shadigan yoki qo‘shmaydigan jarayonlardir.

Pedagog xodimlar faoliyatining o‘ziga xosliklarini hisobga olish, shaxslararo munosabatlarni shakllantirishda juda muhim ish sanaladi. Shaxslararo munosabatlar

dinamik harakterga ega bo‘lib, ular paydo bo‘ladi, o‘zgaradi va rivojlanadi. Tadqiqotchi A.I.Kravchenkoning ta’kidicha, ushbu jarayon uch bosqichda sodir bo‘ladi

1.Odamlar tomonidan - o‘zaro aloqalarning paydo bo‘lishi, o‘zaro tushunish va bir-birini baholash sodir bo‘ladi. Bu asosan, ular o‘rtasidagi munosabatlarning xususiyatini belgilaydi. Shu bilan birga, qabul qiluvchining shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribasi, uning qadriyatlari, kechinmalari, munosabatlari, idrokning turli xil ta’siri, bajaradigan rol funksiyalari va boshqalar bilan xarakterlanadi. Boshqalarni tushunishning adekvatligi ko‘p jihatdan, boshqa odamlarni nafaqat ratsional balki hissiy idrok etish, hamdardlik tuyg‘usini namoyon etish kabi qobiliyatiga ham bog‘liq bo‘ladi;

2.Odamlarning o‘zaro munosabatlari - ratsional va emotsional darajada namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlarda namoyon bo‘ladi Ratsional daraja - bu odamlar bilan muloqot qilish natijasida bir birining yaxshi va yomon tomonlarini bilishdir. Hissiy darajada esa, tegishli tajribalar, hissiy kechinmalar va boshqalar orqali paydo bo‘ladi. L.Ya.Gozmanning yozishicha, ichki tomondan odamlarning bir-biriga bo‘lgan munosabati hurmat yoki hurmatsizlik, ishonch yoki ishonchsizlik, yoqtirish yoki yoqtirmaslik, xayrixohlik yoki yomon ko‘rish, qoniqish yoki norozilik, yordam yoki qarshilik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ichki munosabatlarning tabiati ko‘p jihatdan, boshqa odamning idrok qilish va baholash shu bilan birga, ularning ustun bo‘lgan fikrlariga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Bir-biri bilan aloqa qilish, tajriba to‘plash jarayonida birinchi fikrni kuchaytirish mumkin yoki uni o‘zgartirish ham mumkin. Agar nuqtai-nazar ijobiy bo‘lsa, ichki munosabat ham shunday bo‘ladi. Bunda ikkinchi kishi shaxsiy fazilatlarining qadriyat yo‘nalishlariga muvofiqligi darajasi muhim rol o‘ynaydi. Ular mos kelganda, ichki ijobiy munosabat paydo bo‘ladi.

3.Odamlarda ichki munosabatlarning namoyon bo‘lishi-bu bir-birlariga o‘zaro murojaat qilish shaklida kechadi. Shuni yodda tutish kerak-ki, ichki munosabatlardagi mazmun va jozibadorlik yoki tashqi ko‘rinish har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi. Pedagog xodimlarda ob’ektiv shaxslararo munosabatlarni shakllantirishda ko‘proq, ratsional darajaga ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq sanaladi. Tadqiqotchi V.N.Kunishmaning ta’rificha, tashkilotdagi jamoa - bu shaxsning eng asosiy ijtimoiy-

psixologik xususiyatlarini namoyon qiluvchi, kichik uyushgan guruh bo'lib, u quyidagilar bilan tavsiflanadi

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktab amaliyotchi psixologi o'qituvchilar jamoasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish, nizolarni bartaraf etish va sog'lom psixologik muhit yaratishda muhim o'rin tutadi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Khakimov, S. Maktab psixologi va pedagogik qo'llab-quvvatlash. Toshkent: Fan, 2019.
2. Isaev, R. O'quvchilarda xulq-atvorni shakllantirish usullari. Toshkent: Pedagogika, 2018.
3. Zokirova, M. Psixologik yondashuvlar va o'quv jarayoni. Samarqand: Ma'naviyat, 2019.
4. Karimov, O. O'quvchilarda ijtimoiy va emotsional ko'nikmalar. Toshkent: Fan va Texnologiya, 2021.
5. Rustamova, N. Giperaktiv bolalar bilan ishlash metodikasi. Toshkent: Pedagogika, 2020.
6. Qodirov, F. Stressni boshqarish va psixologik mashg'ulotlar. Toshkent: Ilm-fan, 2018.
7. Ziyonet